

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

6/2025

E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz

6/2025

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal
2025, № 6, iyun

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023-yil 29-avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor

Artikova Hafiza To'ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor

Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Samiyev Kamoliddin A'zamovich, texnika fanlari doktori, dotsent

Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, professor

Jumayev Jura, fizika-matematika fanlari nomzodi, professor

Klichev Qybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori, dotsent

G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

MUNDARIJA * СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS**

TILSHUNOSLIK * LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ**

Сафин Д.Ш.	Трансформации в немецких фразеологических единицах с гендерным компонентом	4
Ханнанова М.И.	Языковая картина мира как объект лингвистического исследования	10
Давлатова Ш.Х.	Фразеологические обороты в произведениях А.П. Чехова	15
Ахмадов М.Р.	Подход к пониманию гендерной лексики в современной лингвистике	21
Abduraxmanova M.U.	Tilshunoslikda strategiya va taktikalar	26
Ziyodullayev A.R.	Contribution of eponyms in lexical enrichment (A comparative analysis of english and uzbek languages)	30
Zaynutdinova D.Sh.	Zamonaviy ingliz tilshunosligida bolalar folklori matnlarining nazariy asoslari	36
Yaxyoyeva U.I.	O'zbek xalq maqollarining nutqiy akt jihatidan tahlili	41
Xusainova Z.Y., Yangibayeva S.G.	Mualliflik korpusi imkoniyatlari (Tohir Malikning "Shaytanat" asari asosida)	46
Xayatova Z.M.	O'zbek tili perifrast dasturining leksik bazasi	51
Utaganova R.M.	Coldness, heat, and lunar shadows: a pragmatic analysis of metaphor and inference in the twilight saga: new moon	56
Umarova M.O'.	Tarjimashunoslik taraqqiyotida korpus lingvistikasining o'rnini va ahamiyati	60
Turgunboev R.I.	Linguistic politeness in uzbek compared to english: a cross-cultural study	65
Sulaymonova M.Sh.	Diskurs tushunchasi va uning lingvistik xususiyatlari	70
Sobirova M.E.	Linguocultural features of advertisements in english language	76
Sobirova D.A.	Types of translation and lexical-semantic problems of translation	81
Sayfullayev Z.A.	Yakkabog' tumani toponimlarining lingvomadaniy qarashlarda morfologik xususiyatlar va tarixiy lingvistik jihatlari	86

TROPLARNING PSIXOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Salixova Nodira Nurullayevna,
Buxoro davlat universiteti o‘qituvchisi
salixovanodira171@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada troplarning psixolingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Badiiy matnlarda uchraydigan metafora, metonimiya, epitet, giperbolla kabi tropik birliklar tilning emotsional-estetik imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga, inson tafakkuri va psixologik holatining lingvistik ifodasidir. Maqolada tropik vositalarning til idroki, ongda shakllanishi va madaniy tajriba bilan bog‘liq bo‘lgan semantik qabul jarayonlari psixolingvistika yondashuvi asosida yoritiladi. Shuningdek, o‘zbek adabiyotidan misollar keltirilib, ularning semantik-funksional hamda psixologik tahlili amalga oshiriladi.

Kalit so‘zlar: troplar, psixolingvistika, metafora, til idroki, badiiy obraz, emotsional rezonans, kognitiv tafakkur.

PSYCHOLINGUISTIC PROPERTIES OF TROPES

Abstract. This article analyzes the psycholinguistic characteristics of tropes. Tropic units such as metaphor, metonymy, epithet, and hyperbole, commonly found in literary texts, not only enhance the emotional and aesthetic potential of language but also serve as linguistic expressions of human cognition and psychological state. The article examines the semantic reception processes of these tropes in relation to language perception, mental representation, and cultural experience through a psycholinguistic approach. Furthermore, examples from Uzbek literature are provided, along with their semantic-functional and psychological analyses.

Keywords: tropes, psycholinguistics, metaphor, language perception, literary image, emotional resonance, cognitive thinking.

ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ТРОПОВ

Аннотация. В данной статье анализируются психолингвистические особенности тропов. Такие тропические единицы, как метафора, метонимия, эпитет и гипербола, встречающиеся в художественных текстах, не только расширяют эмоционально-эстетические возможности языка, но и являются лингвистическим выражением человеческого мышления и психологического состояния. В статье освещаются процессы семантического восприятия тропов в контексте языкового восприятия, ментального представления и культурного опыта с точки зрения психолингвистики. Также приведены примеры из узбекской литературы с их семантико-функциональным и психологическим анализом.

Ключевые слова: тропы, психолингвистика, метафора, языковое восприятие, художественный образ, эмоциональный резонанс, когнитивное мышление.

Kirish. Psixologizm - psixologik tahlil, psixologik obraz, psixologik tasvir, psixologik roman, psixologik hikoya va psixologiya kabi atamalar bilan bog‘liq bo‘lib, bu juda keng ko‘lamli sohadir. Chunki psixologiya inson kechinmalarini, shaxsiyatini, ruhiyatini o‘rganadigan fan bo‘lib, u boshqa ko‘plab sohalar kabi adabiyotshunoslik bilan ham chambarchas bog‘liqdir. A. B. Yesinning fikriga ko‘ra, badiiy psixologizm – bu asar personajining xayolot olami, fikrlari, mulohazalarining o‘ziga xos badiiy vositalardan foydalangan holda juda to‘liq, batafsil va chuqur ifodalab berish [5.1]. Jahon adabiyotshunosligida ruhiyat mavzusida birinchilardan bo‘lib tadqiqot olib borgan rus adibi N. G. Chernishevskiy psixologik tahlilning turli xil bo‘lishi mumkin ekanligini ta’kidlagan va bir muallif xarakter qirralarini ochib berishga urinayotgan bir paytda, boshqasi – shu xarakterning shakllanishiga jamiyat va turmush ta’sirini ko‘rsatib berishga urinadi; uchinchisi esa xatti-harakatlarning his-tuyg‘ular bilan aloqadorligini; to‘rtinchisi – ehtiroslar tahlilini tasvirlaydi [4.1]. Taxminan ikki yuz yillar avval psixologizm tushunchasi rus adabiyoti va madaniyatida shakllana boshlagan bo‘lib, bu muammoni ilm dunyosiga olimlar A.A. Potebnya, D.N. Ovsyaniko-Kulikovskiy olib kirgan, bundan tashqari adabiyotshunoslikda M.M. Baxtin, A.B. Yesin, D.S. Lixachev, L.Y. Ginzburg, psixologiya fanida esa I.V. Straxoviy, L.S. Vigotskiy, G.G. Granik, O.V. Soboleva tomonidan chuqur tadqiq qilingan.

Adabiyotda psixologizmning rivojlanish tarixini tavsiflab, adabiyotshunos olim L.Y.Ginzburg “mavjud adabiy janrlarda psixologik yangiliklar endigina nish urayotgan bir vaqtda, badiiy adabiyotning yondosh janrlari bo‘lmish –kundaliklar, memuarlar, rasoil va avtobiografik janrlarda psixologizm allaqachon o‘rnashib bo‘lgan edi” deb yozadi [3.29]. Shuningdek, “psixologizm” atamasi turlicha ta’riflarga ega bo‘lib, turli madaniyatlarda ularning mentaliteti va urf- odatlari va hayot tarzidan ham kelib chiqiladi. Rus adabiyotshunoslik terminlari qomusida “*Psixologizm (adabiyotda) – qahramonlar ichki olami: ularning o‘y-xayollari, orzu-umidlari, iztiroblarining chuqur va batafsil tasviri*”[2.1].

Materiallar va metodlar. Tilshunoslik — ichki tarmoqlari ko‘plab bo‘lgan murakkab fan sohasi bo‘lib, yildan yilga unda yangi tadqiqot yo‘nalishlari shakllanmoqda. Shu kabi yangi yo‘nalishlardan biri — psixologizm va adabiyotshunoslikning o‘zaro integratsiyasi natijasida vujudga kelgan badiiy psixologizm sohasidir. Ushbu sohaning dolzarbligi, avvalo, badiiy matnlarda psixologik unsurlarni ifodalash va ularni o‘quvchiga aniq hamda to‘g‘ri yetkazish muammosi bilan bog‘liq.

Til va tafakkur bir-biri bilan uzviy bog‘liq hodisalar bo‘lsa-da, ular mohiyatan bir xil emas. Til inson tafakkurining ifoda shakli hamda mavjudlik formasi sifatida inson ongining shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Til qobig‘idan tashqarida ongning shakllanishi imkonsizdir. Shu bois, til, tafakkur va psixika o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi omillar sifatida qaralishi lozim.

Bugungi kunda adabiyotshunoslik bir qancha alohida tarmoqlarga ajralib, mustaqil fan sifatida rivojlanmoqda. Shu jarayonda badiiy psixologiya yo‘nalishi ham o‘zbek adabiyotshunosligi doirasida shakllanib, bir qator tadqiqotchilar tomonidan o‘rganila boshlandi. Bu esa ushbu yo‘nalishning ilmiy ahamiyatini va dolzarbligini tasdiqlaydi.

Badiiy psixologizm masalasining tarixiy taraqqiyoti ingliz va o‘zbek adabiyotshunosligi kontekstida ko‘rib chiqilganida, bu yo‘nalishda o‘zbek adabiyotshunosligida amalga oshirilgan hamda kelgusida amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadqiqotlarning mavjudligi aniqlanadi. Bugungi kunda badiiy psixologizm masalasi adabiy-tanqidiy tahlilning muhim va zarur yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, ingliz adabiyotshunosligida mazkur nazariy konsepsiya nisbatan chuqur tadqiq etilgan bo‘lib, unga oid qarashlar batafsil ochib berilgan.

Zamonaviy adabiyotning jahon miqyosida jadal rivojlanayotgani sharoitida psixologik roman, psixologik qissa va psixologik hikoya kabi nasriy janrlarni har bir milliy adabiyot doirasida tahlil etish va ilmiy asosda o‘rganish zamonaviy adabiyotshunoslikning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotshunoslikda bugungi kunda badiiy psixologizmni tadqiq qilishning metodologiyasi ishlab chiqilgan bo‘lib, bu masalaga bag‘ishlangan deyarli barcha ilmiy tadqiqot ishlari adabiy asar yozilgan davr tarixiy-ijtimoiy jarayonlari, yozuvchining shaxsiy uslub va metodi inobatga olingan holda bajarilgan. Rus adabiyotshunos olimasi M. JI. Bedrikova o‘z tadqiqoti doirasida “psixologizm darajasi” atamasini kiritadi hamda uni quyidagicha kriteriyalar asosida tasniflaydi: 1) matnda psixologizmni kuchaytiruvchi vositalar (psixologik detal', psixologik tafsilot, personajlarning psixologik xatti-harakatlari, psixologiklashtirilgan (psixologizirovanniy) tavsif); 2) qahramonlarni tavsiflash vositalari (psixologik portret, psixologik xarakteristika, psixologik konflikt, psixologiklashtirilgan syujet, "qalb dialektikasi"; 3) xarakter va vaziyat nisbati (qahramon tomonidan xronotopning “qalban” o‘zlashtirilishi, qahramonning o‘z-o‘zini anglashi, vaziyat taqazosi bilan qahramonni ruhan o‘zgarishi) [6.1].

Izlanish va muhokamalar. Troplar — badiiy nutqning ifoda vositasi bo‘lib, ularning asosiy vazifasi so‘z ma’nosini ko‘chma yo‘l bilan ifodalash orqali estetik ta’sirni kuchaytirishdan iborat. Ular tildagi emotsional-estetik yuklamani oshiradi, obrazlilikni ta’minlaydi. Shu bilan birga, troplar inson tafakkuri, psixologiyasi va til idrokining o‘zaro ta’siri asosida shakllanadi. Psixolingvistika esa til va tafakkur o‘rtasidagi munosabatni, inson ongida til birliklarining qanday shakllanishi, saqlanishi va qo‘llanishini o‘rganadi. Mazkur maqolada troplarning psixolingvistik jihatdan qanday tarzda qabul qilinishi, qay tarzda til idrokida namoyon bo‘lishi masalalari yoritiladi.

Psixolingvistika nuqtayi nazaridan troplar — bu nafaqat tildagi stilistik birliklar, balki insonning ongida shakllanadigan murakkab ma’no tuzilmalaridir. Ularning qabul qilinishi va tushunilishi, avvalo, til egasining umumiy bilim darajasi, tajribasi, emotsional holati va madaniy kontekst bilan bevosita bog‘liq.

Troplarning eng ko‘p uchraydigan turlari — metafora, metonimiya, sinekdoxa, epitet, giperbolla va boshqalar — til foydalanuvchisi ongida mavjud bo‘lgan tajriba asosida idrok qilinadi. Masalan, metaforani tushunish uchun inson real hayotdagi ikki narsa yoki hodisa orasidagi umumiylikni anglay olishi lozim. Bu esa psixik faoliyat, idrok va tafakkur bilan bog‘liq jarayondir.

Metafora — bir hodisani boshqasiga nisbatan idrok qilish vositasi bo‘lib, uning kognitiv mexanizmi asosida inson tajribasida mavjud bo‘lgan mental xaritalar ishlaydi. Masalan, “hayot — bu sayohat” degan

metafora, insonda “sayohat” tushunchasiga oid barcha bilish tajribalarini hayot tushunchasiga tatbiq qilish imkonini beradi.

Metonimiya va sinekdoxa esa obyektlar orasidagi yaqinlik yoki aloqadorlik asosida yuzaga chiqadi. Bu jarayonlarda ham psixolingvistik jihatlar — ya’ni ma’lumotlar assotsiativ tarzda faollashuvi muhim o’rin tutadi.

Shuningdek, giperbolla va litota kabi troplar insonning emotsional holatiga bevosita bog’liq. Ularda subyektiv baho, kuchaytirish yoki kamaytirish ehtiyoji mavjud bo’lib, bu nutq egasining psixologik holatidan darak beradi. Shu bois bu troplar ham psixolingvistik tahlil uchun muhim obyekt hisoblanadi.

Zamonaviy psixolingvistika sohasida troplarning tushunilish mexanizmini o’rganish uchun eksperimental metodlar, xususan, assotsiativ tajribalar, fikrlash tezligi va emotsional ta’sir kuchini aniqlash metodlari qo’llanilmoqda. Bu orqali troplarning qabul qilinishi va qayta ishlanishi bosqichlari aniqlanmoqda.

Troplar nafaqat badiiy nutqni bezovchi stilistik vositalar, balki inson tafakkuri va psixologik holatini ifodalovchi lingvistik birliklar hisoblanadi. Ularning tushunilishi, qo’llanishi va qabul qilinishi psixolingvistik jarayonlar bilan chambarchas bog’liqdir. Til birliklarining ma’no jihatdan ko’chishi, yangi obrazlar orqali ifoda topishi, til egasining kognitiv tajribasi va emotsional holati asosida yuzaga keladi. Shu bois troplarni faqat stilistik yoki semantik nuqtayi nazardan emas, balki psixolingvistik yondashuv asosida tahlil qilish ularning mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Quyidagi misollarda turli stilistik vositalarning badiiy matnlarda ko’rinishlari tahlil qilinadi:

“Yuragim og’ridi.” (metafora)

Bu metaforada “yurak” — insonning emotsional markazi sifatida qaralmoqda. Aslida yurak og’rishi fiziologik holat, biroq bu yerda psixologik iztirob ko’zda tutilmoqda. Bu idrok psixolingvistik jihatdan insonga xos bo’lgan umumiy emotsional tajriba asosida shakllanadi.

“Ko’zimga dunyo tor edi, yuragimni bir changal g’am ezib turardi.” (Oybek, *“Qutlug’ qon”*) (giperbolla)

Bu yerda “dunyo tor edi” degan ibora bilan muallif kuchli tushkunlik holatini obrazli ko’rsatmoqda. Inson bu kabi giperbolalarni o’z shaxsiy emotsional tajribasiga asoslanib idrok qiladi — bu psixolingvistik jarayon sifatida ongda avvalgi iztirob holatlari bilan bog’lanadi.

“Sog’inchli tunlar, jimjit ko’ngil, armonli bahor...” (Zulfiya she’riyati) (epitet)

Epitetlar bu yerda nafaqat badiiylilikni oshiradi, balki o’quvchining emotsional rezonansini faollashtiradi. “Sog’inchli tun” iborasi orqali tun va sog’inch bir-biriga bog’lanib, o’quvchining shaxsiy xotiralari orqali idrok qilinadi. Bu — kognitiv jarayon.

“Sahnada Xurshid chiqdi.” (“Xurshid” aslida aktyor emas, uning ijro etayotgan roli nazarda tutilmoqda.)

Bu yerda obraz va ijrochi o’rnini almashtirish orqali metonimiya hosil qilingan. Psixolingvistik jihatdan bu idrok, kontekst asosida obyektga ma’no ko’chirish orqali yuzaga keladi.

Xulosa. Troplar tilning emotsional-estetik imkoniyatlarini kengaytiruvchi, inson tafakkuri va ruhiyatini badiiy shaklda ifodalashga xizmat qiluvchi muhim lingvistik birliklardir. Ularning ma’no ko’chirishga asoslangan tabiati, ayniqsa, psixolingvistik yondashuvda chuqur tahlil etilishi zarur bo’lgan hodisadir. Troplar orqali inson ongida mavjud bo’lgan bilish, emotsional va madaniy tajriba namoyon bo’ladi hamda til vositasida obrazli ifodalanadi. Psixolingvistik nuqtayi nazardan qaralganda, tropik birliklarning tushunilishi va idrok qilinishi faqat tilda emas, balki inson psixikasida kechadigan murakkab jarayonlar bilan bog’liq. Bu jarayonlar nutq egasining kognitiv xaritalari, madaniy konteksti, emotsional holati va nutqiy tajribasi asosida amalga oshadi. Metafora, metonimiya, sinekdoxa, epitet, giperbolla kabi trop turlarining psixologik asoslarini anglash, nafaqat tilshunoslik va adabiyotshunoslik uchun, balki psixologiya, madaniyatshunoslik kabi fanlararo yondashuvlar uchun ham dolzarbdir. Shuning uchun tropik birliklarni faqat stilistik yoki semantik darajada

emas, balki ularning idrok qilinishi va ongda qayta ishlanish mexanizmlarini o'rganuvchi psixolingvistik tahlil doirasida o'rganish, zamonaviy tilshunoslik oldidagi muhim ilmiy vazifalardan biridir.

ADABIYOTLAR:

1. Н. Г. Чернышевский. *Собрание сочинений в пяти томах. Том 3. Литературная критика. Библиотека "Огонек".* М.: "Правда", 1974 (http://az.lib.ru/c/chernyshewskij_n_g/text_0240.shtml).
2. *Литературная энциклопедия терминов и понятий; под ред. А. Н. Николюкина.* М.: 2001 (<https://www.academia.edu/37372082/> [Murojaat sanasi: 15.08.2022]).
3. Гинзбург, Л. Я. *О психологической прозе. О литературном герое.*СП. Б:29 Азбука, 2016.
4. <http://www.litmind.ru/milits-616-1.html> [Murojaat sanasi: 22.03.2025]
5. <http://www.litmind.ru/milits-616-1.html> [Murojaat sanasi: 22.03.2025]
6. <https://www.dissercat.com/content/osobennosti-psikhologizma-russkoi-prozy-vtoroi-pолоviny-1980-kh-godov-tvorchestvo-v-astafeva> [Murojaat sanasi: 15.03.2025]
7. Гинзбург, Л. Я. *О психологической прозе. О литературном герое.*СП. Б:29 Азбука, 2016.
8. *Литературная энциклопедия терминов и понятий; под ред. А. Н. Николюкина.* М.: 2001 (<https://www.academia.edu/37372082/>
9. Ахмедова, М. (2019). "Badiiy nutqda troplarning semantik-funksional xususiyatlari". *Filologiya masalalari*, №2, 55–60.
10. Jo'raqulova, Z. (2021). "Kognitiv lingvistika va psixolingvistik yondashuvda metafora talqini". *O'zbek tili va adabiyoti*, №4, 34–39.
11. Paximov, III. (2015). *Lingvistik poetika asoslari.* Toshkent: Fan va texnologiya.
12. Yuldashev, H. (2016). *Til va tafakkur munosabati.* Toshkent: Ma'naviyat.
13. Navoi, A., & Babur, Z. M. (2022). *Research and education.*
14. Haydarova, G. (2024). *Alisher Navoiy an'analari va XX asr o'zbek g'azaliyoti.* Alisher Navoi and 21 st century, 1(1).
15. <https://www.dissercat.com/content/osobennosti-psikhologizma-russkoi-prozy-vtoroi-pолоviny-1980-kh-godov-tvorchestvo-v-astafeva>

KORPUS LINGVISTIKASI VA BILINGVIZM: ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUV

Ruziyeva Madina Ilhom qizi,

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti tayanch doktoranti

madinaruziyeva67@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada korpus lingvistikasi va bilingvizm (ikki tillilik) masalalariga zamonaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan yondashiladi. Korpus lingvistikasi asosida bilingvistik ma'lumotlarni tahlil qilish, ikki tilli shaxslar nutqidagi xususiyatlarni aniqlashda kompyuter lingvistikasi vositalarining roli ochib beriladi. Maqolada integratsiyalashgan yondashuv asosida bilingvizm holatlarini o'rganish metodlari, korpus tuzish va ma'lumotlarni avtomatik tahlil qilishning afzalliklari yoritiladi. Ilmiy-amaliy natijalar bilingvistik tadqiqotlarda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash samaradorligini namoyon etadi. Shuningdek, maqolada zamonaviy tilshunoslikda bilingvizm va sun'iy intellektning nazariy hamda amaliy jihatlarini tahlil qilinadi. Xususan, bilingv shaxslar til faoliyatining psixolingvistik va ijtimoiy-lingvistik xususiyatlari hamda sun'iy intellekt asosidagi lingvistik texnologiyalarning tilshunoslikdagi qo'llanilishi o'rganiladi. Har ikki yo'nalishning o'zaro integratsiyasi esa lingvistik innovatsiyalarni shakllantirishda muhim omil sifatida ko'riladi.

Kalit so'zlar: bilingvizm, sun'iy intellekt, kompyuter lingvistikasi, kod almashtirish, avtomatik tarjima, til modeli.

КОРПУСНАЯ ЛИНГВИСТИКА И ДВУЯЗЫЧИЕ: КОМПЛЕКСНЫЙ ПОДХОД В СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация. В данной статье вопросы корпусной лингвистики и билингвизма рассматриваются с точки зрения современной лингвистики. Раскрывается роль инструментов компьютерной лингвистики в анализе билингвистических данных и выявлении особенностей речи билингвальных личностей на основе корпусной лингвистики. В статье освещаются методы изучения явлений билингвизма на основе интегративного подхода, преимущества создания корпусов и автоматического анализа данных. Научно-практические результаты демонстрируют эффективность применения современных технологий в билингвистических исследованиях. Кроме того, в статье анализируются теоретические и прикладные аспекты билингвизма и искусственного интеллекта в современной лингвистике. В частности, рассматриваются психолингвистические и социолингвистические особенности языковой деятельности билингвальных личностей, а также применение лингвистических технологий на основе искусственного интеллекта в лингвистике. Интеграция обоих направлений рассматривается как важный фактор формирования лингвистических инноваций.

Ключевые слова: билингвизм, искусственный интеллект, компьютерная лингвистика, переключение кодов, автоматический перевод, языковая модель.

CORPUS LINGUISTICS AND BILINGUALISM: AN INTEGRATED APPROACH IN MODERN LINGUISTICS

Abstract. This article examines issues of corpus linguistics and bilingualism from the perspective of modern linguistics. It highlights the role of computational linguistic tools in analyzing bilingual data and identifying features in the speech of bilingual individuals based on corpus linguistics. The article discusses methods for studying cases of bilingualism using an integrative approach, as well as the advantages of corpus creation and automatic data analysis. The scientific and practical results demonstrate the effectiveness of applying modern technologies in bilingual research. Additionally, the article analyzes both theoretical and practical aspects of bilingualism and artificial intelligence in contemporary linguistics. In particular, it explores the psycholinguistic and sociolinguistic characteristics of bilingual language activity and the application of AI-based linguistic technologies in linguistic studies. The integration of both fields is seen as an important factor in shaping linguistic innovations.

Keywords: bilingualism, artificial intelligence, computational linguistics, code-switching, machine translation, language model.